

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DONIYOROV MUXIDDIN NORMAMATOVICH

**BIOLOGIYA DARSLARIDA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI
PISA TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH (7-SINF MISOLIDA)**

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi aftoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertetation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Doniyorov Muxiddin Normamatovich

Biologiya darslarida xalqaro baholash tadqiqotlari PISA topshiriqlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish (7-sinf misolida)..... 3

Дониёров Мухиддин Нормаматович

Совершенствование методики использования заданий международного оценочного исследования PISA на уроках биологии (на примере 7 класса)..... 23

Doniyorov Mukhiddin Normamatovich

Improvement of the methodology for using international assessment studies pisa tasks in biology lessons (on the example of 7th grade)..... 45

E’lon qilingan ishlar ro’yhati

Список опубликованных работ
List of published works..... 50

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DONIYOROV MUXIDDIN NORMAMATOVICH

**BIOLOGIYA DARSLARIDA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI
PISA TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH (7-SINF MISOLDIDA)**

13.00.02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PHD/Ped7812 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Azimov Ibragimjon Toshpulatovich
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Maxmudov Yusup G'anievich
pedagogika fanlari doktori, professor

Arepbaev Islambek Muratbaevich
biologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.20.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025 yil «30» sentyabr kuni soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Universitet majlislar zali. Tel.: (+99861) 223-60-47, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu.info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№367-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy, Tel.: (+99861) 223-59-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «15» sentyabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «15» sentyabrdagi 8-raqamli reestr bayonnomasi)



M.A. Jumanov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

M.K. Begjanov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d., dotsent

Ya.I. Ametov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sodir bo'layotgan global ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar intellektual salohiyatli, iqtidorli, kreativ fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash amaliyotiga, xalqaro baholash tadqiqotlariga o'quvchi va o'qituvchilarni tayyorgarligini oshirish jarayonida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda o'qituvchilar o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha turli zamonaviy yondashuvlarni jamlash, binobarin o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi va kreativ fikrlashlarini amaliyotga yo'naltirilgan, ta'lim tizimida o'quvchilar uchun funksional savodxonlikni shakllantirishga imkon beruvchi integrativ faoliyat amalga oshiriladi. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro baholash dasturlarida bugungi kunda ta'lim tizimida fan va innovasiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, ta'lim tizimida o'zgarishlar kiritish zarurligi ta'kidlangan.

Dunyoda barcha rivojlangan mamlakatlarning ta'limi mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekani e'tirof qilingan. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar faoliyati o'quv dasturlarini takomillashtirish va qayta ishlashga qaratilgan. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari xalqaro ta'lim talablarga mosligi, o'quvchilarning o'qish, matematik, tabiiy-ilmiy savodxonligi va kreativ fikrlashini rivojlantirish, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etib, ijobiy natijaga erishishi bo'yicha samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuning uchun ta'lim oluvchilarning kompetensiyalardan foydalanish, o'z qobiliyatlari, ijodkorligi, tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga sharoit yaratuvchi ta'lim muhitini joriy qilishga yo'naltirilgan tadqiqotlar o'tkazish dolzarb masalalardan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-son farmoni bilan Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini qurish maqsadida ta'lim sifatini tubdan oshirish va pedagog kadrlarning bilim va malakalarini xalqaro darajaga ko'tarish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda, shuningdek, milliy taraqqiyot istiqbollari ko'rib chiqilmoqda¹. Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'quvchilarda ta'lim va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutuvchi umumiy o'rta ta'lim tizimida zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni ta'minlashga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda. "Umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish" ustuvor vazifalardan etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"²gi PF-5538-son, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni.

ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"³gi PF-5712-son Farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"⁴gi PQ-4884-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"⁵gi 997-son Qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash tadqiqotlaridagi ishtiroki, unga tayyorgarlik ko'rish va o'quvchilarning ilmiy savodxonligini rivojlantirish, tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini aniqlashga oid topshiriqlar ishlab chiqish kabi masalalar M.T.Ergasheva, I.E.Shernazarov, A.Radjiyev, A.A.Ismailov, X.J.Daminov, J.Tolipova, G.O.Tog'ayeva, I.T.Azimov, U.E.Raxmatov, G.S.Ergasheva, Z.A.Kosimova, H.P.Ahmedov, M.Maxsudov, M.Boymuratova, E.Tursunov va boshqalar ishlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan PISA xalqaro baholash tadqiqoti kontekstida kreativ fikrlashni baholash va rivojlantirish masalalari G.S.Kovaleva, L.O.Roslova, G.A.Sidorova, A.Yu.Pentin, ta'lim oluvchilarning kreativ faoliyati tushunchasi uni shakllantirish va rivojlantirish yo'llari, kreativ va ijodiy qobiliyatini shakllantirishning asosiy mazmuni hamda matematik savodxonlikni shakllantirish B.Ye.Mixaylovich, Ye.M.Bugakova, L.S.Baytimerova, V.M.Grebennikova, K.B.Belikov, T.P.Payudis, E.V.Sivak, D.M.Mirzanurova, T.S.Skilevaya, A.Yu.Pentin, G.Yu.Semyonova, Ye.A.Nikishova, K.P.Vergeles, N.A.Zagranichnaya, Ye.L.Rutkovskaya, G.G.Nikiforov, A.A.Kozlova, Ye.S.Korolkova, A.A.Bochixina, A.V.Polovnikova, N.V. Shtilman, O.A.Rudze, Ye.S.Kvitko, K.A.Krasnyanskaya, L.O.Roslova, L.O.Denisheva, I.I.Karamova, S.Ye.Dyukova, T.V. Koval va boshqalar global kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

Xorijiy davlatlarda xalqaro baholash tadqiqotlari o'tkazishning ilmiy nazariy asoslari va o'qitish metodikasini takomillashtirish sohasida Andreas Shlyayxer, Charlotte Baer, Anna Becker, N.V.Volzhennina, O.Petropoulou, S.Sethy, Jennie Chainey, Carmela Aprea, Chang Chi-Cheng va boshqalar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son Farmoni.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884 son Qarori.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-son Qarori.

Biroq olib borilgan ilmiy izlanishlar, mavjud o'quv va ilmiy manbalar tahlili ko'rsatadiki, Biologiya darslarida o'quvchilarning bilimlarini nostandart testlar, yozma ishlar orqali baholash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, biologiya darslarida o'quvchilar bilimini PISA topshiriqlari orqali baholash, ularni xalqaro PISA tadqiqotlariga tayyorlash ko'nikmalarini zamonaviy metodlar bilan rivojlantirish o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" mavzusi (2020-2022) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi biologiya darslarida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishda PISA xalqaro baholash tadqiqotlaridan foydalanish metodikasi bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

umumta'lim maktablari biologiya o'qitish tizimida xalqaro tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida o'quvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning amaldagi holatini aniqlash;

biologiya fanidan o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlari asosida rivojlantiruvchi innovatsion usul va topshiriqlar asosida takomillashtirish;

o'quvchilarni shaxsiy-hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirishga asoslangan ta'limning interaktiv muhitiga moslashuvchanligini adaptiv va amaliy yo'nalganlik tamoyillari asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlari asosida rivojlantirishning didaktik va metodik ta'minotini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida biologiyani o'qitishda o'quvchilarning tabiiy ilmiy savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlari asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 200-sonli IDUM, Surxondaryo viloyati, Muzrabod tumanidagi 40-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi hamda Namangan viloyati, Uychi tumani 14-son umumiy o'rta ta'lim maktablaridan jami 428 nafar o'quvchilar jalb qilingan.

Tadqiqotning predmeti biologiya darslarida xalqaro baholash tadqiqotlari asosida o'quvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni, metodlari, vositalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlar, meyoriy huquqiy hujjatlarni o'rganish, pedagogik kuzatish, anketa, topshiriqlar, matematik, tabiiy-ilmiy savodxonlik va kreativlikni aniqlash metodikalari, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

umumta'lim maktablari biologiya fanining ta'limiy maqsadlarga mo'ljallangan xalqaro tadqiqot natijalarini tahlil qilish, o'quvchilarni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning innovatsion muhitini yaratish, kognitiv, jarayonli, refleksiv, motivatsiyali tamoyillar, tayanch va fanga doir kompetensiyalar bilan integrativ, refleksiv aloqalarini ta'minlash, kontekst tuzilishdagi mashqlar hamda PISA topshiriqlaridan foydalanish samaradorligini prognozlash asosida aniqlashtirilgan;

biologiya fanidan o'quvchilar tabiiy-ilmiy savodxonligini xalqaro baholashning turli darajadagi (matnidagi ma'lumotlarni eslab qolish va gapirib berish, g'oya va malakalar, strategik fikrlash, kengaytirilgan fikrlash) asosida ishlab chiqilgan kontekst PISA topshiriqlari orqali o'quvchilarning intellektual salohiyatli, iqtidorli, kreativ fikrlaydigan va kommunikativ kompetentligi (umumiy, kasbiy, ijodiy, reproduktiv, samarali aloqalarni o'rnatish, qo'llab-quvvatlash)ni rivojlantirishning ilmiy-metodik ta'minoti takomillashtirilgan;

xalqaro baholash dasturi biologiya fanini o'qitishning tarkibiy asoslari (mazmuni, maqsadi va vazifalari) hamda o'quvchilarning shaxsiy-hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirishga asoslangan ta'limning interaktiv muhitiga moslashuvchanligini adaptiv va amaliy yo'nalganlik tamoyillari asosida rivojlantirish, PISA topshiriqlarini yaratishga qo'yiladigan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik talablar hamda biologiya darslarining barcha turlariga refleksiv moslashtirish asosida "Biologiya o'qitishda xalqaro baholash" nomli o'quv qo'llanmasi yaratilgan;

biologiyani o'qitishda o'quvchilarning mustaqil ishlarini PISA topshiriqlari asosida tashkil etish darajalari (reproduktiv, produktiv, izlanishli, ijodiy) mazmuni xalqaro baholash dasturiga muvofiq (standart, nostandart, ochiq javobli va kompyuterda bajarishga asoslangan testlar) topshiriqlar asosida takomillashtirilgan hamda o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan didaktik va metodik ta'minoti yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirishga oid muammoli-izlanishli-kreativ mazmunini aks ettirgan kontekst formatdagi topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun "Biologiya o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar" va "Biologiya o'qitishda xalqaro baholash" nomli o'quv qo'llanma nashr ettirilgan va amaliyotga tadbiq etilgan;

muammoli yondashuv asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilib bo'lajak biologiya o'qituvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlari asosida rivojlantirish bo'yicha metodik ko'rsatma va tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi metodologik yondashuv va tadqiqot usullari tamoyillarga asoslangani, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalaridan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'quvchi va bo'lajak biologiya o'qituvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi va kreativ faoliyatini rivojlantirish muammosiga doir milliy va xorijiy tajribalarning mujassamlashtirilgan, biologik ta'limining rivojlantirishga doir edukologik imkoniyatlari ochib berilgan. Asinxron va sinxron topshiriqlar asosida ta'lim oluvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda integrasiyalashgan ta'lim muhitini tashkil etishga qo'yiladigan didaktik, metodik va ergonomik talablar ishlab chiqishda foydalanish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati muammaoli-izlanishli-kreativ vaziyatlarni intensiv qo'llashga doir topshiriqlar ishlab chiqilgani, xalqaro baholash tadqiqotlariga oid turli murakkablikdagi kontekst topshiriqlar tayyorlashda zamonaviy ta'lim texnologiyasi muhitini yaratishning tashkiliy-metodik, baholashning diagnostik tizimlari takomillashtirilganligi bo'lajak o'qituvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishga ko'maklashadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Biologiya darslarida xalqaro baholash tadqiqotlari PISA topshiriqlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish (7-sinf misolida) bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

umumta'lim maktablari biologiya fanining ta'limiy maqsadlarga mo'ljallangan xalqaro tadqiqot natijalarini tahlil qilish, o'quvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning innovatsion muhitini yaratish, kognitiv, jarayonli, refleksiv, motivatsiyali tamoyillar, tayanch va fanga doir kompetensiyalar bilan integrativ, refleksiv aloqalarini ta'minlash, kontekst tuzilishdagi mashqlar hamda PISA topshiriqlaridan foydalanish samaradorligini prognozlashga oid takliflar "Biologiya o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Nizomiy nomidagi TDPU Kengashining 2024-yil 30-noyabrdagi 4/3.1-sonli qarori asosida berilgan 2024-581U-500 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada umumta'lim maktablari biologiya o'qitish tizimida xalqaro baholash tadqiqot natijalarini tahlil qilish imkoni yaratilgan;

biologiya fanidan o'quvchilarning intellektual salohiyatli, iqtidori, kreativ fikrlaydigan va kommunikativ kompetentligi hamda tabiiy-ilmiy savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlari asosida rivojlantiruvchi turli darajadagi PISA kontekst topshiriqlar tizimi "Biologiya o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Nizomiy nomidagi TDPU Kengashining 2024-yil 30-noyabrdagi 4/3.1-sonli qarori asosida berilgan 2024-581U-500 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada biologiya fanidan o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlari asosida rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimini tadbqiq etish samaradorligi oshhgan;

xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish biologiya fanini o'qitishning tarkibiy asoslari hamda shaxsiy-hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirishga asoslangan ilmiy-metodik ta'minotini PISA topshiriqlarini bajarishga o'rgatuvchi metodlarni amaliyotga joriy etishga oid takliflar "Biologiya o'qitishda xalqaro baholash" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga

singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-maydagi 194-sonli buyrug'i asosida berilgan 194-345 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini xalqaro baholash tadqiqotlar asosida rivojlantirishning ilmiy-metodik ta'minotini PISA topshiriqlarini bajarishga o'rgatuvchi metodlarni amaliyotga joriy etish imkoni kengaytirilgan;

biologiya o'qitishda o'quvchilarning mustaqil ishlarini PISA topshiriqlari asosida tashkil etish mazmuni xalqaro baholash dasturiga muvofiq o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan didaktik va metodik ta'minotini takomillashtirish asosida ishlab chiqilgan "Biologiya o'qitish jarayonida 7-sinf o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini PISA xalqaro tadqiqotlarini tatbiq etish metodikasini takomillashtirish modeli"ga oid takliflardan Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida yaratilgan didaktik materiallar mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 11-yanvardagi 11-05-179/04-sonli dalolatnoma). Natijada, umumta'lim maktablari o'quvchilarning PISA topshiriqlari bajarish bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, 2 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muommoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning "**Biologik ta'lim jarayoniga xalqaro baholash tadqiqotlarini tatbiq etishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida, PISA tadqiqotlarining tabiiy fanlar bo'yicha qamrov doirasi tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlikni baholash vositalarining asosini tashkil etishi haqida fikr yuritilgan

hamda biologiya fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va ularni amaliyotda tadbiq etish yo'llari yoritib berilgan. O'zbekiston Respublikasida Yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqe'ini ko'tarish, xalqaro nufuzli reytinglarda munosib o'rinlarni egallash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi, ta'limning barcha bosqichlarini 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha konsepsiyalar, Milliy malakalar ramkasi qabul qilindi hamda amaliyotga tatbiq etib borilmoqda. Ta'lim jarayoniga og'zaki, ko'rgazmali, amaliy metodlarning qo'llanilishi bu metodlarning turlari, an'anaviy va noan'anaviy o'qitishning o'ziga xos tomonlari, biologiya o'qitishda foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar va ularning mohiyati bayon etilgan. Biologik ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyalarni qo'llash va yangi-yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish hozirgi vaqtda ham dolzarb ekanligiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ta'lim jarayoniga xalqaro baholash tadqiqotlarini kirib kelishi va xalqaro baholash tadqiqotlarini tarixi, tashkil etilishi hamda ularning ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishga ko'rsatadigan ta'siri berilgan. PISA xalqaro baholash tadqiqotlarini o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan:

- Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etish, natijalarni qiyosiy tahlil qilish va zamon talablariga javob beradigan milliy baholash tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega ekanligi.

- Tadqiqot an'anaviy ravishda 3 yilda bir marotaba o'tkazilib, har bir davriylikda bittadan yo'nalishga ustuvorlik berilishi hamda bitta innovatsion yo'nalish kiritilishi va 2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan tadqiqotda innovatsion yo'nalish sifatida o'quvchilarning kreativ fikrlash kompetensiyalari ham baholanishi.

Unda o'quvchilar maktabda egallagan bilimlarini qanchalik eslab qolganliklari emas, balki olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishlari, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalari baholanishiga e'tibor berilishi yoritilgan.

O'quvchilarning turli fanlar bo'yicha topshiriqlarni tushunishi, fanlararo bog'liqlikni anglashi, topshiriqlarning qo'yilishi, ularning yechilishi va tatbiq etilishi shular jumlasidandir. O'quvchilar biologiyadan olgan bilimlarining hayotda qo'llash qobiliyatlarini shakllantirishi. O'z navbatida o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlaridan tashqari vaqtida ham bilimlarini doimiy kengaytirish uchun yo'nalish belgilashda katta ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratilgan.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishi ochib berilgan.

Ta'lim tizimiga xalqaro baholash tadqiqotlarini tatbiq etishning xozirgi xolati va o'quvchilarning biologiya darslarida Xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rishni metodik asoslari ilmiy asoslangan. Milliy ta'lim tizimiga yangi loyihalar, dasturlar, ta'lim sifatini baholash va rivojlantirishga yondashuvlar kirib kelar ekan, ushbu islohotlarning muvaffaqiyatli bo'lishida tizim ishtirokchilarining xabardorligini

oshirish muhim ahamiyatga ega. 10,0 mingdan ortiq maktablarni qamrab olgan umumiy oʻrta taʼlim tizimida faoliyat yuritayotgan maʼmuriy boshqaruv xodimlari, pedagoglar, oʻquvchilar va ota-onalar oʻrtasida targʻibot-tashviqot ishlarini olib borish, yangi loyihalarning mazmuni, mohiyati va ahamiyati haqida ularga yetkazib berish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammolarni inobatga olgan holda, Taʼlim inspeksiyasi va Xalq taʼlimi vazirligining tegishli qarori asosida Respublikaning barcha hududlaridagi 208 ta tuman (shahar)larni qamrab oladigan 348 ta tayanch maktablari belgilanib, ularning faoliyatini tashkil etish boʻyicha yoʻriqnoma tasdiqlandi.

Tayanch maktablar umumiy oʻrta taʼlim muassasalarini xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik koʻrishga yoʻnaltirish boʻyicha asosiy metodik bazaga ega boʻlgan, doimiy oʻquv mashgʻulotlari, seminar-treninglar, davra suhbatlarini tashkil etish, ilgʻor xorijiy tajribalarni ommalashtirish ishlarini amalga oshiradigan muassasalar hisoblanishi belgilab qoʻyildi. Ushbu maqsadlar yoʻlida oʻziga yaqin hududlardagi 9586 ta maktablar tayanch maktablariga birlashtirilib, bunda har bir tayanch maktabi uchun oʻrtacha 27,5 ta maktablar toʻgʻri keldi (1-javdal).

1-javdal

Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik koʻrishga yoʻnaltirilgan tayanch maktablar va ularning qamrov doirasi

T/r	Hududlar nomi	Tuman (shahar) soni	Tayanch maktablar soni	Birlashtirilgan maktablar soni	Bir tayanch maktabga birlashtirilgan oʻrtacha maktablar soni
1	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	16	26	698	26,8
2	Andijon viloyati	16	28	736	26,3
3	Buxoro viloyati	13	23	510	22,2
4	Jizzax viloyati	13	20	525	26,3
5	Qashqadaryo viloyati	15	29	1115	38,4
6	Navoiy viloyati	10	16	344	21,5
7	Namangan viloyati	12	24	681	28,4
8	Samarqand viloyati	16	32	1215	38,0
9	Surxondaryo viloyati	15	27	894	33,1
10	Sirdaryo viloyati	11	15	296	19,7
11	Toshkent viloyati	22	36	853	23,7
12	Fargʻona viloyati	19	36	906	25,2
13	Xorazm viloyati	13	22	514	23,4
14	Toshkent shahri	11	14	299	21,4
Jami		202	348	9586	27,5

Mazkur tizimning faoliyatini tashkil etish haqida qarori (2020-yil 8-may, 17/23-q-q-son) asosida tayyorlandi. Tayanch maktablarida tajribali pedagoglar qatoridan oʻqish, matematik, tabiiy fanlardan savodxonlik darjasini belgilash qaratilgan.

Tayanch maktablarida tajribali pedagoglar qatoridan oʻqish, matematik, tabiiy ilmiy savodxonlik, boshlangʻich taʼlimda oʻqish savodxonligini rivojlantirish boʻyicha

trener-o'qituvchilar faoliyati yo'lga qo'yildi hamda ularning bazasida minglab seminarlar tashkil etildi.

Maktablarning jamiyatdagi funksiyasini ortib borishi PISA xalqaro baholash dasturi maktablar, aholining ijtimoiy tabaqalari, jinsi, kelib chiqishi, hududlar va davlati bo'yicha natijalarni umumlashtiradi va jamiyatning turli jabhalari uchun ta'limga oid statistik ma'lumotlarni taqdim etadi. Baholash dasturi maktablarning ta'lim va tarbiya funksiyasiga to'ldiruvchi vazifa rolini o'taydi. Maktablarda o'quvchilarning faqat ma'lum fan bo'yicha erishilgan bilimlari emas, balki fanlararo va bir qancha fanlarni umumlashtiruvchi topshiriqlarni bajara olishini fanga oid kompetensiyalarga e'tibor qaratish kerakligi ko'rsatib o'tilgan.

Dissertatsiyaning **“Biologiya darslarida xalqaro baholash tadqiqotlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida o'quvchilarni biologiya fanidan PISA Xalqaro tadqiqotlariga tayyorlash metodikasi, PISA dasturining o'ziga xosligi, biologiya fanidan PISA topshiriqlarini yaratish va ularni ta'lim tizimiga tatbiq etish asoslari yoritilgan.

PISA yordamida o'quvchilarning ta'limiy yutuqlari: bilish, qo'llash, mulohaza yuritish kabi qobiliyatlari baholanadi. Xalqaro baholashning tabiiy-ilmiy savodxonlik yo'nalishi o'quvchilarning fizika, biologiya, kimyo, geografiya fanlaridan egallagan bilim va ko'nikmalarini kompleks holda tekshiradi. O'quvchilarga taklif etiladigan hayotiy vaziyatlar har bir insonning shaxsiy hayotida uchraydigan dolzarb muammolar bilan bog'liq muammolar PISA topshiriqlarida o'z aksini topadi. Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha “Yo'l xaritasi” ishlab chiqilgan, unga ko'ra, o'quvchilarning yozma va nutq savodxonliklarini oshirish bo'yicha ilg'or milliy va xalqaro tajribalarni joriy etish bo'yicha “Yo'l xaritasi”ning 13-bandida xalqaro tadqiqotlarda o'tgan yillarda foydalanilgan savollar mazmunini o'rganib chiqib, tahlil qilish belgilangan.

Xalqaro baholash tadqiqotlariga asoslangan topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko'ra oltita guruhga ajratiladi. Ular quyidagicha;

1-daraja (ballar chegaralari: 357.77 - 420.07)

O'quvchilar tomonidan barcha kerakli ma'lumotlar taqdim etilganda va savollar aniq shakllantirilganda va savollarga javob berishga aniq ma'lumotlardan foydalanishga qodirliklari namoyon etilganda, o'quvchilar tomonidan zarur ma'lumotlarni tanib olishlari va aniq belgilangan vaziyatlarda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmalarga muvofiq topshiriqlarni bajarsalar yuqoridagi ball qo'yilishi mumkin.

2-daraja (ballar chegaralari: 420.07 - 482.38)

O'quvchilar kontekstlarda to'g'ridan-to'g'ri xulosa chiqarish kerak bo'lgan vaziyatlarni talqin qilishlari va tan olishlari mumkin. Ular kerakli ma'lumotlarni bitta manbadan foydalanib natijalarni chiqarib olishlari va bir xil shaklda taqdim etilgan ma'lumotlardan foydalanishlari mumkin. O'quvchilar tabiiy ob'ektlar bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun aniq ma'lumotlardan, jadvallar, sxemalardan foydalanishlari shu bilan birga biologik qonun va qoidalarni qo'llash imkoniyatiga ega ekanliklari hamda olingan natijalarni to'g'ri talqin qilishga qodirliklari hisobga olinadi.

3-daraja (ballar chegaralari: 482.38 - 544.68)

O'quvchilar tomonidan berilgan topshiriqlarni bosqichma-bosqich ko'rsatmaga binoan bajarishlari, har bir bosqichlarni bajarish davomida o'ziga xos yechimlarni taklif etishlari, muammo yechimini topishda oddiy usullardan foydalanishlari xisobga olinadi. Ular topshiriqni oddiy yechimini topish uchun asos bo'ladigan bilimlarni tatbiq etishlari kerak. O'quvchilar ushbu topshiriqlarni yechimini topish uchun turli xil manbalariga asoslangan xolda tushunchalarni talqin qilishlari va ulardan foydalanishlari mumkin. Ular odatda biologik ob'ektlarni tanishlari, oddiy biologik muammolar yechimini topish qobiliyatlarini namoyish etishlari kerak. O'quvchilar olingan natijalarni erkin talqin qila olishlari kerak.

4-daraja (ballar chegaralari: 544,68 - 606,99)

O'quvchilar aniq berilgan topshiriqlar ustida ishlashlari, murakkab vaziyatlarni vujudga kelganda uni ilmiy jihatdan hal etishlari, lekin ayrim xato va kamchiliklarga yo'l qo'yishlari mumkin. Ular biologik hodisalarni o'rganish ular tomonidan bu muammolar yechimini topish uchun real ma'lumotlardan foydalanishlari, to'plangan ma'lumotlarni umumiyashtirish uchun turli omillarni muammo yechimini topishga yo'naltira olishlari kerak. O'quvchilar o'zlarining bilim, ko'nikma, malakalarini qo'llashlari, turli xil takliflarni ilgari surishlari mumkin. Olingan natijalarni taxlil qilishda turli dalil va isbotlarni keltirishlari kerak.

5-daraja (ballar chegarasi: 606.99 - 669.30)

O'quvchilar murakkab muammoli topshiriqlar yechimini topishda turli modellarni shakllantirish va ular bilan ishlashi, ularni cheklovchi omillarini bilishi va bu muammo yechimi bo'yicha turli farazlarni ilgari surishlari kerak. Ular ushbu muammo yechimini topishga imkon beradigan ilmiy qarashlar va ishlash usullarini tanlashi, olingan natijalarni taqqoslashlari va baholosh imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Taklif etilayotgan muammoni ko'rib chiqishda o'quvchilar o'z bilimlarini to'liq safarbar etishlari va fikrlash va mulohaza yuritish qobiliyatlari, natijalarni taqdim etishda o'z qarashlarini uzviy bir-biriga bog'liq xolda yo'naltirishlari, turli xil ramzlar, jadvallar, sxemalar bilan ishlay olish qobiliyatlarini namoyon etishlari kerak.

6-daraja (to'planishi zarur bo'lgan ballarning eng pastki chegarasi – 669.30)

Tabiiy fanlar savodxonligi ushbu darajaga javob beradigan o'quvchilar murakkab muammoli vaziyatlarni o'rganish va modellashtirish orqali olgan ma'lumotlarini tushunishlari, umumlashtirishlari va ulardan foydalanishlari va o'z bilimlaridan noodatiy sharoitlarda foydalanishlari mumkin. O'quvchilar turli xil shakllarda taqdim etilgan turli xil manbalardan olingan ma'lumotlarni bog'lashlari va ulardan foydalanishlari va bir shakldan ikkinchisiga erkin o'tishlari mumkin.

Shuningdek, PISA turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur bo'lib, bugungi kungacha jami 8 marta PISA dasturi bo'yicha test-topshiriqlar o'tkazilgan bo'lib, keyingi sinovlar 2025-yilda bo'lishi rejalashtirilgan (2-3-4-jadvallar).

2-jadval

Eng yuqori natija qayd etgan 10 ta davlat

	Matematik savodxonlik	O'qish savodxonligi	Tabiiy ilmiy savodxonlik
1	Singapur	Singapur	Singapur
2	Makao (Xitoy)	Irlandiya	Yaponiya
3	Taypey (Xitoy)	Yaponiya	Makao (Xitoy)
4	Gongkong (Xitoy)	Janubiy Koreya	Taypey (Xitoy)
5	Yaponiya	Taypey (Xitoy)	Janubiy koreya
6	Janubiy Koreya	Estoniya	Estoniya
7	Estoniya	Makao (Xitoy)	Gongkong (Xitoy)
8	Shvesariya	Kanada	Kanada
9	Kanada	AQSh	Finlyandiya
10	Niderlandiya	Yangi Zelandiya	Avstraliya

3-jadval

Eng past natija qayd etgan 10 ta davlat

	Matematik savodxonlik	O'qish savodxonligi	Tabiiy ilmiy savodxonlik
72	O'zbekiston	Shimoliy makedoniya	Salvador
73	Iordaniya	Albaniya	Gvatemala
74	Panama	Dominikan respublikasi	Falastin
75	Kosovo	Falastin	Paragvay
76	Filippin	Filippin	Marokash
77	Gvatemala	Kosovo	Dominikan respublikasi
78	Salvador	Iordaniya	Kosovo
79	Dominikan respublikasi	Marokash	Filippin
80	Paragvay	O'zbekiston	O'zbekiston
81	Kambodja	Kambodja	Kambodja

4-jadval

MDH davlatlari o'rtasidagi natijalar tahlili

	Matematik savodxonlik	O'qish savodxonligi	Tabiiy ilmiy savodxonlik
	21. Latviya (483 ball)	27. Latviya (475 ball)	19. Latviya (494ball)
	24. Litva (475)	32. Litva (472)	29. Litva (484)
	41. Ukraina (441)	46. Ukraina (428)	39. Ukraina (450)
	46. Qozog'iston (425)	51. Moldova (411)	49. Qozog'iston (423)
	50. Moldova (414)	61. Qozog'iston (386)	51. Moldova (417)
	56. Azarbayjon (397)	67. Gruziya (374)	66. Gruziya (384)
	60. Gruziya (390)	69. Azarbayjon (365)	68. Azarbayjon (380)

Ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuvlar natijalarga asoslangan ta'limni o'zlashtirishga qaratilgan talablarni qo'ymoqda. Shu sababli xalqaro tadqiqotlarda natijasida egallangan tajribalardan foydalanish zurrur bo'lmoqda.

Xalqaro baholash tadqiqotlarini maqsadi va o'ziga xos tomonlarini, bunga doir topshiriqlarni bajarishda vujudga kelgan qiyinchiliklarni aniqlash va o'quvchilarni bu qiyinchiliklarni yengishga o'rgatishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- bu topshiriqlardagi qiyinchiliklar fanning qaysi sohalariga tegishli ekanligini e'tibor berish kerak;

- bu topshiriqlar qo'shimcha ma'lumotlardan (turli topshiriqlardan foydalanish, matnlardan chetga chiqish) va bundan tashqari topshiriqdagi "keraksiz" va "ortiqcha" ma'lumotlarni bilish;

- bu o'quvchilarga qiyinchilik tug'diradigan malumotlar yechimini topish uchun "Bilish", "Mulohaza qilish" va "Qo'llash" kabilardan foydalanish;

- bu noodatiy topshiriqlarni bajarishda ko'p variantli javoblar haqida ham taasavurga ega bo'lishni talab etish;

- bu o'zaro bir-biriga bog'liq bir nechta savollarni o'z ichiga olgan kompleks va loyihalashni talab etadigan topshiriq ekanligini tushunib yeting;

- bu ko'p miqdordagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan xilma-xil mavzular va turli shakldagi formatlarga ega javoblarni turli variantlarda berilishini talab etuvchi (javobni tanlash, so'zlar yoki sonlar yozib borish, qisqa yoki kengaytirilgan javoblarni yozish), ayrim topshiriqlar loyihalash tipida bo'lib ularni ma'lum bir chegaralangan vaqtda bajarish;

- bu topshiriqlarni bajarish davrida o'z hayotidagi jarayonlar bilan bog'lash, hayotda uchraydigan noodatiy xolatlarda bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish;

- bu topshiriq javoblarini jadval, diagramma, grafik tarzida shakllantirishlarni talab etadi;

- bu topshiriqlar fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirishni talab etadi.

Keltirilgan xalqaro baholashga oid topshiriqlar va uni bajarishga oid metodik ko'rsatmalar o'quvchilarning xalqaro baholash dasturlari PISA da ishtirok etishlari uchun tayyorgarlik ko'rishlarida foydali bo'ladi.

